



20.01.2022 даги

"Toshkent suv ta'minoti" MChJ Chirchiq shahar bo'limi va Чирчик шаҳар ХТБ ўртасида 149980,95 сўм умумий
суммага тузилган 154/Б - сонли шартномага

ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ*

2022 й. ойлар номи.	Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди)			сўмда Жами
	4224000			
Январь	49 993,65			49 993,65
Февраль	49 993,65			49 993,65
Март	49 993,65			49 993,65
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
Жами йил бўйича	149 980,95			149 980,95

Жами 149980,95 сўм

Бир юз қирқ тўққиз минг тўққиз юз саксон сўм 95 тийин

сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан _____ сўм ёки _____ % *** шартноманинг умумий суммасидан
_____ % ***20 _____ ойида тўланиши лозим.

(*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан газначилик бўлинмасига икки нусхада такдим этилади;

(**) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(***) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойнага 100 % жорий ойнанинг 15 санасигача ҳар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).

Буюртмачи раҳбари



[Signature]
(имзо)

Норметов Комилжон Пардабаевич

Ф.И.Ш.

Буюртмачи бош бухгалтери

[Signature]
(имзо)

Карабаева Гульноза Тургунпулатовна

Ф.И.Ш.

Газначилик бўлинмасининг
ходими қабул қилди

(имзо)

Буюртмачи ходими
қабул қилди

(имзо)

« ___ » _____ 20__ й.

« ___ » _____ 20__ й.

Tarif qiymati:
Suv 1 m³ 4680 so'm
Oqova 1 m³ 1695 so'm

154/15 -sonli shartnoma
Iste'molchilarga ichimlik va oqova suvi xizmatlarini ko'rsatish uchun

Chirchiq shaxar/tuman.

«20» yanvar 2022 y.

Ushbu shartnoma "Toshkent suv ta'minoti" MCHJ, keyingi o'rinlarda "Ta'minotchi" deb yuritiladi. Nizom asosida faoliyat yurituvchi

V.R. Rasulmurotov
(F.I.Sh.)
shaxsida, bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb yuritiluvchi Chirchiq shohar xTB
Ustav asosida ish olib boruvchi direktor K.P. Normurotov
(F.I.Sh., lavozimi)

ikkinchi tomondan, quyidagilar haqida tuzildi:

I. Shartnoma predmeti

1.1. 2022 yil uchun suv yetkazish hajmi uchun tuzilgan shartnomaga muvofiq budget tashkilotlari va II guruh iste'molchilari uchun suv yetkazish 6195 narx bo'yicha 9.04 m³ni:

1 m³ suv uchun 4680 so'm (+QQS 15%), + 50 so'm (maxsus ustama xaq)ni tashkil qilmoqda
1 m³ oqova suyuqlik uchun 1695 so'm (+QQS 15%) + 50 so'm (maxsus ustama xaq)ni tashkil qiladi
Shu tariqa shartnomaning umumiy qiymati 149 986.92 / 6124 m³ x 24.65 QQS 15% so'mni tashkil qiladi
Shu jumladan, budget mablag'laridan 149 986.92 / 6124 m³ x 24.65 QQS 15% so'm, budgetdan tashqari mablag'laridan 0 so'm budgetdan tashqari mablag'lardan to'lanishi ko'zda tutilgan.

Budget tashkilotlari II guruh iste'molchilari tomonidan to'lov muntazam (oyma-oy) tarzda "Ta'minotchi" tomonidan taqdim qilingan hisobvaraqa-fakturalarga asosan, Moliya vazirligi G'aznachiligi orqali suv ta'minoti va oqova suvini chiqarish uchun o'tkazilgan mablag'lar orqali amalga oshiriladi.

1.2. «Ta'minotchi» «Iste'molchi»ni O'zDSt 950: 2011 «Ichimlik suvi, gigiyenik talablar va sifat nazorati» amaldagi standartiga muvofiq ravishda barqaror ta'minlaydi. Ushbu standart nazorat Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati tomonidan amalga oshirilib, suv quvurlari tarif qiymatida (QQS ni hisobga olgan holda) xo'jalik-maishiy va ishlab chiqarish-texnologik ehtiyojlarga yo'naltiriladi.

1.3. «Iste'molchi» o'rnatilgan muddatlar ichida "Ta'minotchi"ga ko'rsatilgan suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.4. Tarafilar ushbu shartnomaning suv ta'minoti va oqova suvini chiqarish bo'yicha shartlarini bajarish, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvini chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalariga" (keyinchalik matnda - Qoidalar deb yuritiladi), va Toshkent viloyati Hokimining 2019 yil 13 martidagi № 200-sonli qaroriga, unga muvofiq tarifga, 1 m³ suv uchun va kanalizatsiya xizmatlariga ham 1 m³ 50 so'mdan mahsus ustama haq joriy etilgan hamda "Ta'minotchi" tomonidan taqdim qilingan kommunal suv yetkazib berish va okava suv chiqarish tizimiga ulanish uchun ruxsat etuvchi hujjatlarga rioya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

1.5. «Iste'molchi» ushbu shartnomaga, uning tasarrufidagi barcha ob'ektlarining (filial va sub-iste'molchilarning) dislokatsiyasini, ularning suvda ehtiyoji va suv tizimiga ulanishdagi ehtiyojini, yetkazib berishning miqdori va diametrlarini ko'rsatgan holda, kadastr nusxasini taqdim qiladi, "Ta'minotchi"ni o'z vaqtida suv o'tkazish-oqova xo'jaligidagi, bank ma'lumotlari va yuridik manzilidagi o'zgarishlar haqida xabardor qiladi.

II. Umumiy qoidalar

2.1. Ichimlik suvi bilan ekinlarni sug'orish, hovlilar, yo'lakchalariga o'rnatilgan vaqtdan tashqari suv sepish, hamda, ichimlik suvidan avtomashinalarni yuvish uchun foydalanish qat'iyan man etiladi.

2.2. Kommunal suv ta'minoti tizimlaridagi ichimlik suvi iste'molchi (sub-iste'molchi)larning xo'jalik-iste'mol va kommunal-maishiy ehtiyojlari, yong'inlarni o'chirish, shuningdek, ichimlik suvi talab etiladigan texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari uchun mo'ljallangan. "Ta'minotchi"ning texnik imkoniyatlari mavjud bo'lgan holatlarda, ixtisoslashgan iste'molchilarga ichimlik suvi markaziy kommunal suv ta'minoti tizimlaridan yetkazib beriladi.

2.3. Asosiy iste'molchining tarmoqlaridan suv olib, oqova suvlarini "Iste'molchining" kanalizatsion tarmoqlariga o'tuvchi sub-iste'molchilar suv ta'minoti va oqova suvini chiqarish shartnomasini "Iste'molchi" bilan tasdiqlangan "Qoidalar"ga muvofiq tuzadilar.

2.4. Suvni hisobga olish asboblari O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agetligi tomonidan tekshirilgan va tamg'alangan bo'lishi va suv o'lchash tarmog'i suv-kommunal xo'jaligi tashkiloti tomonidan tamg'alanishi lozim. Shuningdek ichimlik suvini xisobga olish uskunasi yechish, qiyoslashdan o'tkazish va o'rnatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 20 avgustdagi № -698 sonli qaroriga muvofiq yuritiladi.

2.5. "Iste'molchi"ga o'rnatilishi lozim bo'lgan suv o'lchash qurilmasining shartli o'tkazgichining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlanadi, ob'ektning maksimal suv iste'moli va minimal suv iste'moliga tekshiriladi va "Iste'molchi" bilan kelishiladi. Hisoblash qurilmasi uchun o'rnatilgan minimal iste'mol miqdorida kam miqdorda suv iste'mol qilinganda, «Ta'minotchi» suv o'lchash tarmog'ini qaytadan qurilma bilan ta'minlash uchun ko'rsatma beradi, ushbu ko'rsatma bajarilmaganda, hisoblash qurilmasining ko'rsatkichlari qabul qilinmaydi va hisoblash Qoidalarida o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

2.6. Suv o'tkazish-kanalizatsiya xo'jaligining rekonstruksiya, hisoblash qurilmalarini ishga tushirish, hisoblash qurilmalarini almashtirish, yangi sub-iste'molchilarining ulanishi "Iste'molchi" tomonidan faqat "Ta'minotchi" tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiha asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular "Iste'molchining" so'rovnomasi asosida, barcha tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda beriladi. "Ta'minotchi"dan olingan texnik shartlar asosida, "Iste'molchi" buyurtmasiga asosan, amaldagi me'yor, qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida loyihalashtirish tashkiloti tomonidan ulanish loyihasi ishlab chiqiladi.

2.7. Qurilgan ulamalarning ishga tushirilishi "Ta'minotchi" tomonidan, "Iste'molchi" va qurilish tashkilot vakillarining ishtirokida amalga oshiriladi.

2.8. Agar suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun narxlarda o'zgarish vujudga kelsa, to'lov yangi tariflar asosida amalga oshiriladi.

2.9. Kommunal suv ta'minoti va suv chiqarish qismlarining texnik holati uchun ekspluatatsion mas'uliyat chegarasi (suv va oqova tizimlari, qurilmalar va ularning moslamalari) suv-kommunal xo'jaliklari va iste'molchilar orasida, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari orasida quyidagilardan iborat:
a) suv iste'moli uchun uzatish tarmog'ining kiritilish qurilmasi bo'lib, u kommunal tarmoqdan o'chiriladi. Suv quvurini, shu jumladan uzatish qurilmasini ishga tushirish iste'molchining ichki suv uzatish tizimining bir qismidir;

b) oqova tizimi uchun magistral oqova tizimiga ulanish nuqtasidagi suv chiqarish qudug'i bo'lib, u "Iste'molchi"ning ichki oqova tizimining bir qismidir. Agar chiqarish oqova qudug'i magistral oqova tarmog'ida joylashgan bo'lsa, ko'rsatilgan quduq suv-kommunal xo'jaligining bir qismi bo'ladi, uzatish tarmog'ining ekspluatatsiyasi esa "Iste'molchi"ning kuchi va mablag'i hisobiga amalga oshiriladi.

III. Taraflarning huquq va majburiyatlari

3.1. Iste'molchining huquqlari:

- a) "Ta'minotchi" dan, u bilan tuzilgan shartnoma asosida, ichimlik suv va oqova suvni chiqarish xizmatlarining uzluksiz amalga oshirilishini, o'z hayoti va sog'lig'iga, mulkiga xavf tug'dirmaydigan darajadagi sifat va miqdorda ichimlik suv berilishini talab qilish;
- b) "Iste'molchi" hisobidan hisoblash qurilmasini o'rnatish;
- v) tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarmaganligi uchun "Ta'minotchi" dan qomunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdorda jarima (penya)lar to'lashni talab qilish;
- g) "Ta'minotchi" ni shartnomani bekor qilish to'g'risida, uning bekor qilinishidan kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv ta'minoti yoki oqova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni to'liq amalga oshirgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish;
- d) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani (shaxsan yoki o'z vakili orqali) bepul olish;
- ye) "Ta'minotchi" dan ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari hajmi va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, to'lovlar tarifi va tadbirlarining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;
- y) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifatida ekanligi to'g'risidagi dalolatnoma taqdim etilgandan keyin 18 soat mobaynida ta'minotchidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;
- j) Davlat sanitar-va epidemiologiya markazi organlari tomonidan taqdim etilgan amaldagi standartlarga javob beradigan sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlanmaganlik (sifatsiz ichimlik suv mavjudligi aniqlangan davrdan u tegishli darajaga olib kelingan vaqt) uchun qayta hisob-kitob amalga oshirilishini talab qilish.

3.2. Iste'molchining majburiyatlari:

- a) shartnoma shartlarini bajarish;
- b) o'zining hududida joylashgan va ularga tegishli bo'lgan kommunal suv va oqova tarmoqlari va qurilmalarining muvofiq ravishda qo'riqlanishini, ularga suv tashishi yoki shikastlanishiga, muzlab qolishiga yo'l qo'ymaslik, quduq qopqoqlarini qor va muzdan tozalash, "Ta'minotchi" tomonidan o'rnatilgan tang'ularning butligini nazorat qilish, quduqlardan yuza oqovasi mavjudligini ta'minlash, yong'inga qarshi gidrantlarga o'tish yo'llarini berkitmaslik, ko'rnatilgan yong'inga qarshi gidrantlarning ko'rnatkichlari yaxshi ishlashini nazorat qilish;
- v) "Iste'molchi" hududida yoki uning tasarrufidagi suv quvuri, oqova tarmoqlari va qurilmalarining ustiga turli buyum va materiallarning yig'ilishiga hamda suv quvuri, oqova tarmoqlari va qurilmalarining ustidan inshootlar qurilmasligini, shu jumladan, tashqi (ko'cha va kvartal ichidagi) suv quvuri, oqova tarmoqlari va qurilmalarining ustidan inshootlar qurilishiga yo'l qo'ymaslik;
- g) kommunal suv quvuri, oqova tarmoqlari va qurilmalarining tranzit nuqtalarida har qanday shikastlanish, buzilishlar haqida zudlik bilan "Ta'minotchi" ni xabar berish;
- d) suvni hisobga olish priborlarida yaqqol ko'rinib turgan nosozliklar, shuningdek tang'ularni butligiga shikast yetgan yoki uzib tashlanganligi to'g'risidagi holat aniqlanganda hamda hisobga olinmagan yong'inga qarshi gidrantlar mavjudligi haqida darhol yozma ravishda yoki aloqa tarmoqlari (faks, elektron pochta) orqali "Ta'minotchi" ga xabar berish;
- ye) "Ta'minotchi" bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq majburiyatlariga rioya qilish, har oyning 23 dan 25 gacha sanasida ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va aniq yashib o'tish va ushbu ko'rsatkichlarni "Ta'minotchi"ga joriy oyning oxirgi kundan kechikmagan holda ma'lumotlarni taqdim qilish va to'lovni amalga oshirish;
- y) shartnomada belgilangan miqdordan ortiq hajmda suvning ortiq sarf qilinishiga va oqova suvlarining me'yordan ortiq chiqarilishiga yo'l qo'ymaslik;
- j) "Ta'minotchi" ni o'z vaqtida suv o'tkazish-oqova ko'jaligidagi, bank ma'lumotlari va yuridik munoziradagi o'zgarishlar haqida xabar berish;
- z) "Ta'minotchi" ga tegishli bo'lgan yoki uning hududida joylashgan suv va oqova tarmoqlari, qurilma va moslamalarning muvofiq texnik dokumantatsiyasini ta'minlash;
- z) ishlab chiqarish oqova suvlarining oldindan tozalash ishlarini olib borish va ularning ifloslanish konsentratsiyasini me'yordagi ko'rsatkichlarga o'tib ketmasligini ta'minlash;
- k) oqova tarmoqlariga tashiriluvchi suvlarning sifatining monitoringini ta'minlash;
- l) "Iste'molchi" hududida joylashgan suv o'tkazish tarmog'i, kommunal suv o'tkazish va oqova tizimlarida har qanday ishlarining bajarilishiga beqona sharoitini qo'ymaslik;
- m) jamoat suv va kanalizatsiya tizimlarini ob'ektlariga shikast zara yetkazgan "Iste'molchi" darhol "Ta'minotchi" ga xabar berishi va yetkazilgan zararni qoplash uchun "Ta'minotchi" texnik nazorati ostida o'zi yetkazilgan shikastlanishni bartaraf etish va beqanda sarf qilingan suv narxini to'lab olish.

3.3. "Ta'minotchi"ning huquqlari:

- a) "Ta'minotchi" qarorga ekanida, iste'molchini 7 kun avval xabar berish uchun, suv uzatishni va suv chiqarishni to'liq yoki qisman to'xtatish huquqiga ega;
- b) "Iste'molchi" hududida joylashgan va uning tasarrufidagi suv uzatish va oqova tarmoqlari, moslama va qurilmalarining texnik holati qoniqsiz holatda bo'lsa va "Iste'molchi" texnik foydalanish qoidalarini buzish natijalarini "Ta'minotchi" vakillarini talabiga ko'ra bartaraf etmasa;
- v) "Ta'minotchi" ning suv o'tkazish va oqova tarmoqlarida joylashgan va uning tasarrufidagi bo'lgan suv uzatish va oqova tarmoqlari, moslama va qurilmalarida ishlar olib borish, tang'ular o'rnatilishiga va boshqa ishlarida "Iste'molchi" tomonidan asossiz xalaqat berilgan taqdirda;
- g) "Ta'minotchi" tomonidan e'lon qilingan o'zgarishlar, suv o'tkazish va oqova tarmoqlarida ishlar bajarilishida, "Iste'molchi" ularga ulangan bo'lsa, va yangi "Iste'molchi" larni alish uchun ishlarini o'tkazishda;
- d) "Iste'molchi" ning e'lon ko'rsatishida va uning tasarrufidagi kommunal suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlariga o'z boshimcha sub-iste'molchilarning ulanib olinganligi aniqlanganda;
- ye) "Iste'molchi" o'rnatilgan muddatlarda to'lov hujjatlariga muvofiq to'lovni amalga oshirmaganda;
- y) "Ta'minotchi" ning e'lon qilingan sub-iste'molchilarning "Iste'molchi" tasarrufida bo'lgan kommunal suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlariga ulanishiga rasmiy javobini berganda;
- j) "Iste'molchi" lar tomonidan kommunal suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlarini ko'rsatish shartlariga rioya qilinmaganda;
- z) energiya ta'minoti ta'minlanmaganda;
- z) ob'ektlarda;
- y) avartyalarda;
- k) yong'in chiqqan yerlarga suv yetkazish hajmisi oshirish zaruriyati tug'ilganda.

3.4. "Ta'minotchi"ning majburiyatlari:

- a) suv ta'minoti va suv chiqarish bo'yicha shartnoma shartlarini bajarish;
- b) suv yetkazilishini uzatish yoki taqdimlangan suv berish jadvali asosida ta'minlash;
- v) taqdimlangan davlat suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlari, iste'mol ob'ektlari va qurilmalariga ulangan suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlarining holatini va ishni ta'minlash nazorati qilishni amalga oshirish va ularni to'g'ri ishlatishni taqdim etishda amaliy yordam ko'rsatish, budget bilan hisob-kitobda "Iste'molchi" lar tomonidan oqilona foydalanish va oqilona foydalanishni aniqlash, suvni yetkazib berish va iste'mol qilishni qat'iy nazorat qilish va hisobga olish, samaraga muvofiqligini mustamam ravishda nazorat qilish va ularga tegishli bo'lgan suv iste'mol qilish chakkoqlariga rioya qilishni nazorat qilish;
- g) "Iste'molchi" larga individual hisoblash qurilmalarini o'z ehtiyojidan o'rnatilgandan so'ng, o'rnatilgan tartib va muddatlarda ularning ishni tekshirish;
- d) "Iste'molchi" lar suv quvuri ko'jaligining tekshirishini (individual hisoblash qurilmalarining yaxshi ishlayotganligini tekshirgan, ulardagi nazorat ko'rsatkichlarini o'lchash va tang'ularning mavjudligi va butligini aniqlagan holda) har oyda ko'pi bilan bir marta o'tkazish va muvofiq dalolatnomalarni tuzish;
- ye) "Iste'molchi" lar, ushbu shartnomaning shartlarini bajarmagan holda, jarima ya'ni penya to'lovlarini amalga oshirish;
- y) suv ta'minoti va iste'molga e'lon qilingan suv yetkazilish va boshqa hujjatlarining qabul qilinganligi haqida "Iste'molchi" larni xabar berish;
- j) suv yetkazish va suv chiqarish uchun e'lon qilingan to'lovlarining tarifi oshganda, ular kuchga kirgan kundan 15 kun avval ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumot berish;

Ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va hujjatnomani "Iste'molchi"ga bepul berish;

VI. Tarafning javobgarligi

- 4.1. "Ta'minotchi" ushbu shartnomaga muvofiq zararni majburiyatlarini bajarmaslikda yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda kelib chiqqan zararni, "Iste'molchi" esa yetkazilgan haqiqiy zararining o'zini qoplashi shart.
- 4.2. Iste'molchi quyidagilar uchun javobgardir:
- a) suv hisoblash qurilmasidagi tamg'alar, aylanish chizig'i jo'mragi, gidrantlar va boshqa suv uzatish moslamalaridagi qismlarning uning hududida va tasarrufida bo'lgan tamg'alangan hisoblash qurilmalarining butunligi va saqlanishi uchun;
 - b) suv tarmoqlariga o'z boshimcha ulanib olish, sovuq suvni hisobga olish qurilmalarining qasddan buzilishiga yo'l qo'yish hamda suv hisoblash qurilmalaridagi ko'rsatkichlarni tashqaridan aralashgan holda o'zgartirish holatlari uchun;
 - v) qonunchilikda o'rnatilgan boshqa hollarda;
 - g) o'z boshimchalik bilan qurilgan inshooatlar sababidan, tarmoqlardagi avariya bo'lgan xolatlarida;
 - d) kommunal drenaj tizimi mavjud bo'lsa "Iste'molchi" hududida joylashgan oqova tarmog'iga yomg'ir va erigan qor suvlarning tushishiga yo'l qo'ymaslik. Ushbu qoidabuzarlik aniqlanganda "Ta'minotchi" xodimi o'rnatilgan tartibda dalolatnoma tuzadi va ushbu dalolatnoma "Iste'molchi"ning mas'uliyat va javobgarlik chorasini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.
- 4.3 "Ta'minotchi" quyidagi hollarda javobgardir:
- a) amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning talablariga muvofiq, uzatilayotgan suvning sifati va qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'zda tutilgan boshqa hollarda;
 - b) "Iste'molchi"larga suv ta'minotiga ulanish va suv chiqarish xizmatlarida foydalanish uchun zarur bo'lgan texnik shartlarning o'z vaqtida va ishonchli taqdim qilinishi uchun;
 - v) "Iste'molchi"ning hayoti, salomatligi va mol-mulkiga yetkazilgan zarar, ma'naviy zarar uchun qonunchilikda o'rnatilgan tartib va miqdorda, qoplash;
 - g) shartnoma shartlari va yuklatilgan majburiyatlarini bajarmaslik;
 - d) qonunchilikda o'rnatilgan boshqa hollarda.

V. Suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun hisoblar va to'lovlarning tartibi

- 5.1. Kommunal suv ta'minoti tizimidan chiqarilgan (qabul qilingan) suvning hisobi hisoblash qurilmasi mavjud bo'lganda, hisoblash qurilmasining ko'rsatkichlariga muvofiq, amaldagi tariflar bo'yicha QQSni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.
- 5.2. Oqova tizimiga kelib tushuvchi oqova suvining miqdori, suv tarmog'idan yetkazib beriladigan suv miqdoriga teng. Markazlashgan holda issiq suv ta'minoti mavjud bo'lgan hollarda, iste'mol qilinuvchi sovuq suv miqdoriga 2.0 koeffitsiyenti qo'llaniladi. "Iste'molchi"ning o'zida suv ta'minotining qurilmalari mavjud bo'lsa, oqova suvlarining miqdori ushbu suv qurilmalarining mahsuldorligiga (yoki o'rnatilgan va ro'yxatga olingan hisoblash qurilmalarining ko'rsatkichlariga) ko'paytiriladi. Ichki suv ta'minoti tizimi "Iste'molchi"ning shaxsiy avtonom manbasi bilan bog'liq bo'lmasligi lozim. Ushbu xolat aniqlangan taqdirda, xisob-kitob shartnomaning 6.3 bandiga asosan amalga oshiriladi.

VI. Aloxi shartlar

6.1. Ob'ekt egasi o'zgariganda, "Iste'molchi" butun debitorlik qarzdorligini so'ngirishi va "Ta'minotchi" bilan chiqib ketishdan kamida 7 kun oldin dalolatnomani tuzish va imzolashi zarur, "Iste'molchi" chiqib ketganidan so'ng, tamg'alar va hisoblash qurilmalarining butligi va qoplanmagan debitor qarzdorlik uchun javobgarlik ob'ektning yangi egasi zimmasiga yuklatiladi.

6.2. "Iste'molchi"ning suv uzatish-oqova xo'jaligidagi barcha o'zgarishlar ta'minotchi tomonidan "Iste'molchi"ning xati kelib tushgan kundan boshlab hisobga olinadi.

6.3. Yetkazib berilgan yoki qabul qilingan ichimlik suvi xajmi quvurning o'tkazish qobiliyatidan kelib chiqib oyning kalendar kunlari hisobidan quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Q = M \times F \times \sqrt{2g \times H} \times t$$

- bunda: M – 0.60ga teng bo'lgan zulf in orqali suv sarfi koeffitsiyenti;
F – suyuqlik oqib o'tadigan quvur yoki teshik kesimi maydoni (ichki diametr bo'yicha)m² ;
g – 9,81 m/sek ga teng bo'lgan erkin tushish tezligi;
N – suvning metrlardagi bosimi;
t – vaqt- 24 soat, sekundlarda;

Quyidagi holatlarda:

- 6.3.1. "Iste'molchi"da suv o'lchash asbob va moslamalari yo'q bo'lgan holatlarda (yoki nosoz xolatda);
- 6.3.2. Suv o'lchash asbobi yoki moslamasi "Ta'minotchi"da ro'yhatdan o'tmagan taqdirda;
- 6.3.3. Ichimlik suvi bilan o'z boshimchalik bilan foydalanib, suv sepilganda, avtomashinalar yuvilganda;
- 6.3.4. Suv o'lchash asbobi, moslamasi ishdan chiqqan, singan, buzilgan holatda, plombalari uzilgan bo'lsa sarflangan suv hajmi ushbu shartnoma 6 qismning 6.3 bandida ko'rsatilganiga muvofiq, eng so'nggi tuzilgan dalolatnoma muddatidan yangi suv o'lchash asbobi o'rnatilib, (ro'yhatdan o'tkazilgan) kungacha hisoblanadi;

Suvni hisobga olish asbobi iste'molchining aybisiz nosoz bo'lgan taqdirda sarflangan suv miqdori oldingi uch hisob-kitob oyidagi o'rtacha sarf bo'yicha aniqlanadi. Hisob-kitobning bunday tartibi bir oydan ko'p qo'llanilishi mumkin emas. Agar suvni hisobga olish asbobi ko'rsatilgan muddat mobaynida o'rnatilmasa, sarflangan suv miqdori I guruh iste'molchilari uchun — ushbu Qoidalar 87-bandining «a» kichik bandi bo'yicha, II va III guruh iste'molchilari uchun ushbu Qoidalar 87-bandining «b» kichik bandi bo'yicha hisob-kitob qilinishi;

- 6.3.5. "Iste'molchi"ning ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimi kommunikatsiyalaridan suv isrof bo'lishi holatlari aniqlangan holatlarda;
- 6.3.6. "Ta'minotchi"ning suv o'lchash bo'g'inini diametri kichikroq bo'lgan moslamaga alishtirish to'g'risidagi talabnomasi qondirilmagan, bajarilmagan holatlarda;

6.3.7. Suv o'lchash asbobining hisob-kitobini olib borish bo'g'inidagi qo'yilgan himoya qoplamiga ruxsatsiz tegilish natijasida, ichimlik suv sarfini aniqlash imkoniyati chegaralanganda;

6.4. Ichimlik suvi va oqova suv kommunal tizimlariga (jumladan yong'indan saqlanish gidrantlari va xonadon quvurlariga) o'z boshimchalik bilan ulanib olingan va foydalanilgan holatlar aniqlanganda, "Ta'minotchi" tomonidan dalolatnoma tuziladi va shu tuzilgan dalolatnoma o'z boshimchalik bilan ulanib olgan shaxsning javobgarligi darajasini aniqlash va "Ta'minotchi"ga yetkazilgan zararni hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda:

-to'lov muddati, eng so'nggi tuzilgan dalolatnoma sanasidan o'z boshimchalik bilan ulanib olingan kun sanasigacha yoki yangi suv o'lchash asbobi o'rnatilib, ro'yhatdan o'tkazilgan kungacha, yoki o'z boshimchalik bilan ulanish uzib tashlangan kunga qadar hisobga olinadi;

-o'z boshimchalik bilan ulanib olingan sanadan bu haqda ma'lum bo'lgan sanagacha, agar "Ta'minotchi" balansdagi tarmoqlarga ulanish sodir etilgan bo'lsa, bu muddat da'vo arizasi yozilgan muddatdan oshmasligi zarur. Agar o'z boshimchalik bilan ulangan sanani topish, aniqlash mumkin bo'lmasa, bu muddat da'vo muddatiga teng deb olinadi;

6.5. Texnik shartlar 2 yil muddatga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (obektni loyihalashtirish va qurishni boshlash uchun) loyiha muddatini cho'zdirishi yoki yangi texnik shartlarni olishi zarur.

Texnik shartlari mavjud bo'lmagan holda yoki muddati o'tgan holda, "Ta'minotchi" tomonidan suv uzatish xizmatlarini yakunlashga asos bo'ladi.

6.6. "Iste'molchi" kommunal suv ta'minoti va oqova suvni chiqarib yuborish tarmoqlariga ulanish sanasi haqidagi hujjatlarni taqdim etmagan holatlarda "Ta'minotchi" tomonidan, xokim qarori va kadastr hujjatlari va shu kabilar asosida, hujjat bilan tasdiqlangan ulanish sanasi bo'yicha hisob-kitob qilishga haqlidir.

6.7. Ishlatilgan ichimlik suvi va qabul qilingan oqova suv uchun to'lovlar, "Ta'minotchi" tomonidan taqdim etiladigan to'lov talabnomalari asosida ularga xizmat qiluvchi banklar orqali amalga oshiriladi. Bu to'lovlar "Iste'molchi" tomonidan 3 kunlik muddat ichida akseptsiz tartibda amalga oshiriladi.

To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, "Ta'minotchi" kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun 0.4% penya yozadi va uning umumiy qo'shimi to'lovning 50%dan oshmasligi lozim.

6.8. "Iste'molchi" hisob raqami bo'lmagan taqdirda, to'lovlar bank bo'limlarining kassasi orqali, hisobot davridan keyingi 10 kun muddat ichida to'lanadi.

6.9. «Ta'minotchi» to'lovning har bir davri uchun, avvalgi oy to'lovining 100% miqdorida oldindan to'lovlar (predoplata)ni belgilaydi va bu to'lov keyingi oy hisobiga qo'shiladi. Agar "Iste'molchi" ikki hafta muddat ichida to'lovni amalga oshirmasa, "Ta'minotchi" hech qanday ogohlantirishlarsiz ichimlik suvini yetkazib berishni yoki oqova suvlarni chiqarib yuborishni undirmagunga qadar to'xtatib qo'yish huquqiga ega. Bunday hollarda yong'indan saqlanish va sanitariya holatlari uchun javobgarlik to'liq "Iste'molchi" zimmasiga yuklatiladi. Suv ta'minoti va suv chiqarish tizimidan ilgari uzib qo'yilgan hollarda qayta ulashda II guruh iste'molchilaridan eng kam oylik ish haqining 10 (o'n) barobari miqdorida to'lov qayta ulashni amalga oshirgan tashkilot hisobiga mablag'larni o'tkazish orqali undiriladi;

Kanalizatsiya tizimiga ruxsat etilmagan yong'ir va erkin qor suvlari oqizilayotgan ishlab chiqarish oqova suvlarini "Iste'molchi" lar tomonidan tashlash tartibi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevral kuni qabul qilingan 11 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalari" hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining kommunal kanalizatsiya tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun "Iste'molchi"larga belgilangan tarifga nisbatan 3 (uch) barobar ortiriluvchi koeffitsient miqdor tartibida hisoblanadi.

6.10. Xisob-kitobning noto'g'ri qilinganligi (tariflarning noto'g'ri hisobiga olinganligi va shu kabi holatlar) to'g'risida "Iste'molchi" ga yoziladigan e'tiroznoma to'lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda "Ta'minotchi"ga taqdim etilishi kerak. E'tiroznoma "Iste'molchi"ni to'lov xujjatida ko'rsatilgan summani to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilmaydi.

VII. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Taraflar o'rtasida shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar, kelishuv yo'li bilan hal qilinadi. Agarda ikki tomonlama kelishuvga erishilmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi.

7.2. Ushbu shartnomada belgilangan holatlar yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda, Qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

VIII. Fors – major

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar muzkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major xolati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatining shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1 Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikki tarafda bir nusxadan saqlanadi.
9.2 Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yilning 31 dekabrigacha amal qiladi.

«TA'MINOTCHI»

«Toshkent suv ta'minoti» MCHJ
 «ТОШКЕНТ СУВ ТАЪМИНОТ» М.Б.О.И.М.
 Manzil: ЧИРЧИК ШАҲАР БУЛИМИ
 Tel: Чирчиқ ш. Бозор суви оқати тор кучаси, 1-уй
 h-r: Юр.су: 2263 8000 4001 0149 8431
 Bank: Нас.су: 2263 8000 4001 0149 8137
 Bank kodi: РЭС.су: 2263 8000 8001 0149 8031
 XHTUT: АК "Ипотека" филиал Чирчиқ филиал
 МФО 00478 ЧИЛ 201577853 ОИ-ФН 90005



[Signature]
 U.O. Rasulmatov
 (F.I.Sh. imzo)
 201 y.

«ISTE'MOLCHI»

Chirchiq Shahar xTB
 Manzil: Olkomuniston 4
 Tel: 90 91-5-23001
 g'az/h-r: 2340 2000 300 100 0010 10
 Bank: Toshkent Shahar Banki Bosh Bosh XTB
 Bank kodi: 00014 STIR: 20112 919
 XHTUT: 34117
 Shaxsiy raqam: 20 91-5-17-13
 Shaxsiy h-r: 1000 22860 27919 7036 0000 3608
 Bank:
 Bank kodi: 00014 STIR: 200 9 46 304

(g'aznachilik bo'linmasi nomi)



[Signature]
 (F.I.Sh. imzo)
 201 y.

Yuridik xulosa:

Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarorlik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy-huquqiy asosi to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq tuzilgan

Huquqshunos _____

« » _____ 201 y.

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi. Buyruq.

2. Loyihaning nomi.

Chirchiq shahar Xalq ta'limi bo'limi hamda "Toshkent suv ta'minoti" MChJ o'rtasida suv yetkazib berish to'g'risida;

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.

Chirchiq shahar Xalq ta'limi bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan hamda Chirchiq shahar Yuridik xizmat ko'rsatish markaziga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 20.01.2022 yilda yuborilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



S.Avlaqulov